Annotatsiya: Ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari kompleks tarzda tahlil etiladi. Ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonining nazariy asoslari, uning asosiy funksiyalari hamda zamonaviy talablari yoritiladi. Shuningdek, boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, strategik rejalashtirishni takomillashtirish, rahbarlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda shaffof boshqaruv tizimini shakllantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillari sifatida asoslanadi. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, boshqaruv samaradorligi, ta'lim menejmenti, strategik rejalashtirish, raqamli texnologiyalar, liderlik, boshqaruv kompetensiyasi, ta'lim sifati.

Abstract: The issues of improving management efficiency in the education system are analyzed in a comprehensive manner. The theoretical foundations of educational management, its main functions, and contemporary requirements are discussed. The study also examines the factors influencing management effectiveness, existing challenges, and ways to address them. The importance of implementing digital technologies, enhancing strategic planning, developing leaders' professional competencies, and establishing a transparent management system as key factors for improving the quality of education is substantiated. The research findings can be used to develop practical recommendations for improving management mechanisms in educational institutions.

Key words: education system, management efficiency, educational management, strategic planning, digital technologies, leadership, managerial competence, quality of education.

Аннотация: Проблемы повышения эффективности управления в системе образования рассматриваются в комплексном аспекте. Освещаются теоретические основы управления образовательными учреждениями, его основные функции и современные требования. Также анализируются факторы, влияющие на эффективность управления, существующие проблемы и пути их решения. Обосновывается значимость внедрения цифровых технологий, совершенствования стратегического планирования, развития профессиональных компетенций руководителей, а также формирования прозрачной системы управления как важнейших факторов повышения качества образования. Результаты исследования могут быть использованы при разработке практических рекомендаций по совершенствованию управленческих механизмов в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: система образования, эффективность управления, образовательный менеджмент, стратегическое планирование, цифровые технологии, лидерство, управленческая компетентность, качество образования.

KIRISH

Bugungi globallashuv va tezkor rivojlanish jarayonida ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Har qanday davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi bevosita ta'lim sifati va uni boshqarish tizimining samaradorligiga bog'liq. Shu sababli ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ta'lim muassasalarini samarali boshqarish nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshirish, balki pedagogik jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, raqamli ta'lim muhitining kengayishi hamda ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi boshqaruv tizimiga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish, boshqaruv mexanizmlarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish yo'llarini



aniqlash ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishning nazariy asoslari, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etishning samarali yo'llari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda boshqaruvning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini takomillashtirish muhim tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Akhmedov S. 2020-yilda ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimlarini tahlil qilib, samarali boshqaruvning asosiy omili sifatida tizimlilik, aniq rejalashtirish va nazorat mexanizmlarining uzviyligini ta'kidlaydi. Muallif boshqaruv samaradorligi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi.

Pedagogik menejment va strategik boshqaruv masalalari Islomov B. va Qodirov M. 2019-yilda olib borgan tadqiqotlarda chuqur yoritilgan bo'lib, unda strategik rejalashtirish ta'lim tashkilotlari faoliyatini barqaror rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida baholanadi. Mualliflar boshqaruv jarayonida rahbarning liderlik kompetensiyalari, qaror qabul qilish madaniyati va jamoaviy hamkorlik muhim rol o'ynashini ilmiy asosda ko'rsatib beradilar. Shu bilan birga, Rahmonov D. 2018-yilda inson resurslarini boshqarish masalalarini o'rganib, kadrlar salohiyati va ularni rivojlantirish boshqaruv samaradorligining muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydi.

Ta'lim jarayonida monitoring va baholash tizimlarining o'рни Karimov T. 2021-yildagi ilmiy ishida atroflicha tahlil qilingan bo'lib, unda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tahliliy ma'lumotlarning ahamiyati asoslab berilgan. Muallif monitoring tizimining samarali ishlashi ta'lim sifati va natijadorlik ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Mamatqulov A. 2020-yilda raqamli texnologiyalarning ta'lim boshqaruvdagi rolini o'rganib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish boshqaruv jarayonining tezkorligi va aniqligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xalqaro tadqiqotlarda ham ta'lim boshqaruvi samaradorligi muhim masala sifatida qaraladi. Lee J. va Smith P. 2018-yilda ta'lim boshqaruvi va liderlikning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilib, samarali boshqaruv innovatsion fikrlash va moslashuvchanlikni talab qilishini ta'kidlaydi. OECD tomonidan 2019-yilda e'lon qilingan hisobotda esa ta'lim tizimida hamkorlikka asoslangan boshqaruv, ma'lumotlarga tayangan qarorlar va strategik rivojlanish ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillari sifatida ko'rsatiladi. Ushbu tadqiqotlar ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish ko'p omilli va tizimli yondashuvni talab etishini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar yig'ish uchun kompleks yondashuvdan foydalanildi. Jumladan, ilmiy adabiyotlar va tatistic-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali nazariy asoslar shakllantirildi, ta'lim muassasalaridagi boshqaruv amaliyotini o'rganish maqsadida kuzatuv va taqqoslash usullari qo'llanildi. Shuningdek, boshqaruv jarayoniga oid mavjud tatistic va tahliliy ma'lumotlar umumlantirildi. Olingan ma'lumotlar tizimlashtirish, guruhlash va qiyosiy tahlil usullari asosida qayta ishlanib, boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi. Tahlil jarayonida sabab-oqibat bog'liqligi o'rganilib, mavjud muammolar va ularning kelib chiqish omillari aniqlab berildi hamda umumlantirish orqali ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishdagi mavjud muammolar. Globallashtirish jarayonlari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida inson resurslarini samarali boshqarish tobora murakkab tus olmoqda. Axborot makonining kengayishi, ayniqsa, internet tarmoqlarining keng ommalashuvi turli ma'lumotlarning tezkor tarqalishiga imkon yaratmoqda. Biroq ayrim holatlarda ushbu ma'lumotlarning ishonchliligi yetarli darajada tekshirilmagan bo'lib, bu jamoa a'zolarida noto'g'ri xulosalar shakllanishiga olib kelishi mumkin. Natijada jamoani yagona maqsad sari yo'naltirishga mas'ul bo'lgan rahbar faoliyatida qo'shimcha tashkiliy va kommunikativ murakkabliklar yuzaga keladi.

Ba'zi xodimlarning turli internet manbalarida tarqalgan tasdiqlanmagan ma'lumotlarga tayanib fikr yuritishi jamoa ichida turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday vaziyatlarda rahbar tomonidan tashkilot faoliyatining maqsadi, mavjud vaziyat hamda amaldagi me'yoriy-huquqiy talablarni izohlash zarurati yuzaga keladi. Ushbu jarayon rahbarning vaqt va tashkiliy resurslarini talab etib, boshqaruv faoliyati samaradorligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Boshqaruv jarayonida kadrlar bilan bog'liq ayrim muammolar ham uchrab turadi. Xususan, ishga qabul qilinish istagida bo'lgan ayrim nomzodlarda me'yoriy-huquqiy hujjatlar bo'yicha bilimlarning yetarli emasligi, kompyuter savodxonligining pastligi hamda muloqot madaniyatining to'liq shakllanmaganligi kuzatiladi. Holbuki, insonlar bilan bevosita ishlaydigan tashkilotlarda, ayniqsa, ta'lim muassasalarida professional muomala madaniyati muhim kasbiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi.



Yosh mutaxassislarni qisqa muddatda amaliy faoliyatga moslashtirish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Ko'plab tashkilotlarda ustoz-shogird tizimi joriy etilgan bo'lsa-da, ish jarayonining yuqori intensivligi sababli yangi kadrlarning kasbiy ko'nikmalarini to'liq shakllantirish va ularni tizimli ravishda qayta tayyorlash uchun zarur vaqt ajratish har doim ham oson kechmaydi. Bu holat esa boshqaruv jarayonida qo'shimcha tashkiliy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi ham barcha ta'lim muassasalarida bir xil emas.

Raqamli boshqaruv tizimlarining to'liq joriy etilmagani hamda ma'lumotlar almashinuvi jarayonlarining yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi boshqaruv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, monitoring va baholash mexanizmlarining samaradorligi ham muhim ahamiyatga ega. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida tahliliy ma'lumotlar va natijadorlik ko'rsatkichlaridan yetarli darajada foydalanilmasligi ayrim hollarda boshqaruv faoliyatining natijadorligini pasaytirishi mumkin. Shu bois ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun strategik boshqaruv tamoyillarini keng joriy etish, rahbar kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, raqamli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda monitoring va baholash tizimini yanada kuchaytirish muhim vazifa hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonining asosiy tamoyillari. Ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonini samarali tashkil etish muayyan tamoyillarga tayanishni talab etadi. Mazkur jarayonda eng muhim omillardan biri - jamoaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishdir. Ta'lim tashkilotlarida, odatda, yuqori saviyaga ega bo'lgan ziyoli va malakali mutaxassislar faoliyat yuritadi. Hatto texnik xodimlar ham ma'lum darajada bilimli va muloqot madaniyatiga ega bo'lgan shaxslar bo'lgani sababli rahbar tomonidan boshqaruv jarayonida muvozanatli yondashuv, hurmat va konstruktiv muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday muhitda samarali boshqaruv faqat buyruqbozlik orqali emas, balki o'zaro hurmat, ishonch va hamkorlikka asoslangan boshqaruv uslubi orqali amalga oshiriladi. Boshqaruv jarayonida muntazamlik tamoyili alohida o'rin tutadi. Rejalashtirilgan ishlarning tizimli ravishda amalga oshirilishi, faoliyatning doimiy nazorat ostida bo'lishi hamda intizomiy talablarning izchil qo'llanishi tashkilot faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi. Muntazamlik uzoq muddat davomida sezilarli natijalarni yuzaga keltiradigan muhim omil hisoblanadi.

Tabiatda ham uzluksiz jarayonlarning katta natijalarga olib kelishini kuzatish mumkin. Masalan, suvning uzluksiz oqimi vaqt o'tishi bilan hatto qattiq tosh yuzasini ham yemira oladi. Xuddi shuningdek, boshqaruv jarayonida ham tizimli va izchil yondashuv asta-sekin, ammo barqaror ijobiy natijalarni ta'minlaydi.

Ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini ta'minlovchi yana bir muhim tamoyil - tartib va intizomdir. Tashkilot faoliyatida mehnat intizomi, ish jarayonining aniq rejalashtirilishi hamda belgilangan qoidalarga rioya etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ushbu talablarni jamoa a'zolaridan talab qilishdan avval rahbarning o'zi shaxsiy namuna ko'rsatishi zarur. Rahbar tomonidan ish vaqti rejimiga rioya qilinishi, topshiriqlarning o'z vaqtida bajarilishi hamda belgilangan tartiblarga amal qilinishi jamoa a'zolariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shaxsiy namuna orqali shakllantirilgan intizomiy muhit jamoada mas'uliyat va tartibni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, boshqaruv jarayonida ochiq muloqot, adolatli munosabat va jamoaviy hamkorlik tamoyillari ham muhim hisoblanadi. Rahbar tomonidan xodimlarning fikr va takliflarini inobatga olish, ularni qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish ham jamoaning umumiy samaradorligini oshiradi. Bunday yondashuv xodimlarda tashkilot faoliyatiga daxldorlik hissini kuchaytiradi va ularning kasbiy faolligini rag'batlantiradi. Umuman olganda, ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonining samaradorligi muntazamlik, tartib-intizom, shaxsiy namuna, ochiq muloqot hamda jamoaviy hamkorlik tamoyillariga asoslangan holda ta'minlanadi. Ushbu tamoyillar izchil qo'llanilganda jamoada sog'lom ish muhitini shakllantirish va ta'lim jarayonining sifatini oshirish imkoniyati kengayadi.

Ta'lim tizimida monitoring va baholash mexanizmlarining roli. Ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini ta'minlashda monitoring va baholash mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Mazkur jarayon ta'lim muassasalarida faoliyatining holatini muntazam tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborot bazasini shakllantiradi. Shu bois monitoring va baholash tizimi zamonaviy ta'lim boshqaruvining ajralmas qismi hisoblanadi. Monitoring jarayoni ta'lim muassasalarida olib borilayotgan pedagogik va tashkiliy faoliyatni tizimli ravishda kuzatish, o'rganish hamda tahlil qilishni nazarda tutadi. Ushbu jarayon orqali ta'lim sifati, o'quv jarayonining samaradorligi, pedagog kadrlarning kasbiy faoliyati hamda o'quvchilar yoki talabalar bilim darajasi muntazam ravishda baholanadi. Monitoring natijalari asosida ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Baholash mexanizmlari esa monitoring jarayonida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni mezonlar asosida baholash va natijadorlik ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi. Baholash natijalari ta'lim muassasasining umumiy faoliyati samaradorligini aniqlash, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda rivojlanish istiqbollarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli va tahliliy ma'lumotlarning mavjudligi ta'lim muassasasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta'lim tizimida monitoring va baholash mexanizmlarining samarali ishlashi boshqaruv jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta'minlaydi. Bu jarayon pedagogik faoliyat natijalarini muntazam tahlil qilish, o'quv jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash hamda ularni



bartaraf etishga qaratilgan aniq strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Shuningdek, monitoring natijalari ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda monitoring va baholash jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Raqamli tizimlar orqali ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlarni tezkor yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining tezkorligi va aniqligini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida monitoring va baholash mexanizmlarini samarali tashkil etish boshqaruv jarayonining natijadorligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash hamda ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tahlil va tavsiyalar:

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish jarayoni ko'p qirrali va kompleks yondashuvni talab qiladi.

Birinchidan, jamoaning tarkibi va xodimlarning kasbiy kompetensiyalari boshqaruv samaradorligiga bevosita ta'sir etadi. Axborot makonining kengayishi, internet va raqamli texnologiyalarning ommalashuvi bilan bog'liq holda xodimlar orasida noto'g'ri yoki tasdiqlanmagan ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilinishi holatlari uchraydi. Bu esa rahbar faoliyatida qo'shimcha tashkiliy va kommunikativ murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, yangi kadrlarni amaliy faoliyatga moslashtirish va ularning kasbiy malakasini rivojlantirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Ustoz-shogird tizimi mavjud bo'lsa-da, ish jarayonining yuqori intensivligi sababli yangi xodimlarni to'liq tayyorlash uchun yetarli vaqt ajratish har doim ham mumkin emas. Shu bilan birga, kompyuter savodxonligining pastligi, me'yoriy-huquqiy bilimlarning yetarli emasligi va muloqot madaniyatining yetishmasligi boshqaruv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, monitoring va baholash mexanizmlarining yetarli darajada samarali ishlamasligi boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilishni qiyinlashtiradi. Natijada boshqaruv jarayoni tezkorlik va aniqlikdan mahrum bo'lib, ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari cheklanadi.

Shuningdek, strategik rejalashtirish, raqamli boshqaruv tizimlari va jamoaviy hamkorlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi rahbarning resurslarini ko'p talab qiluvchi vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Barcha bu omillar birgalikda ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishga to'sqinlik qiladi.

1. Ta'lim muassasalarida uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va joriy qilish zarur. Har bir bo'lim va xodimning vazifalari aniq belgilanishi, ularning natijalari doimiy monitoring qilinishi lozim. Bu boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilishga imkon yaratadi.
2. Yangi xodimlarni amaliy faoliyatga tezkor moslashtirish uchun tizimli treninglar va mentorlik dasturlarini joriy etish. Me'yoriy-huquqiy bilimlar, kompyuter savodxonligi va muloqot madaniyati bo'yicha muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
3. Ta'lim jarayonini, pedagogik faoliyatni va ta'lim sifati ko'rsatkichlarini muntazam baholash.
4. Boshqaruv jarayonida elektron hujjat almashinuvi, ma'lumotlar bazasi va tahliliy tizimlarni joriy etish.
5. Ochiq muloqot va konstruktiv fikr almashish madaniyatini shakllantirish, shaxsiy namuna orqali intizom va tartibni mustahkamlash.
6. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va metodlarni joriy etish, rahbarlar va pedagoglarning innovatsion yondashuvga doimiy tayyorgarligini ta'minlash.

Ushbu tavsiyalar amalga oshirilganda ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligi oshadi, ta'lim sifati yaxshilanadi va rahbarlarning resurslari samarali ishlatiladi. Shu bilan birga, pedagogik jamoa faoliyati muvofiqlashadi hamda ta'lim tizimi barqaror rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish jarayoni ko'p qirrali va kompleks yondashuvni talab qilishini ko'rsatdi. Ta'lim muassasalarida samarali boshqaruv faqat nazariy tamoyillarni bilish bilan cheklanmay, balki ularni amaliyotga izchil tatbiq etish, jamoaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va rahbarning shaxsiy namunasiga asoslangan bo'lishi zarur. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy muammolar - kadrlarning kasbiy kompetensiyalarining yetarli emasligi, monitoring va baholash mexanizmlarining samarali ishlamasligi, raqamli boshqaruv tizimlarining to'liq joriy etilmaganligi hamda strategik rejalashtirish



ishning cheklanganligi - boshqaruv samaradorligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, maqolada ko'rsatilgan tamoyillar - muntazamlik, tartib-intizom, shaxsiy namuna, ochiq muloqot va jamoaviy hamkorlik - ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonini samarali tashkil etish va ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi. Monitoring va baholash mexanizmlarini samarali tashkil etish esa boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish, pedagogik faoliyatni yaxshilash va ta'lim jarayonining natijadorligini oshirish imkonini yaratadi. Shuningdek, strategik boshqaruv tamoyillarini joriy etish, raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish, rahbarlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda jamoaviy hamkorlikni mustahkamlash ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi va sifatini oshirishda muhim omillar sifatida aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan, tizimli va strategik yondashuvni amalga oshirish zarur. Mazkur maqolada ishlab chiqilgan tavsiyalar - strategik rejalashtirish, kadrlar malakasini oshirish, monitoring va baholash tizimini takomillashtirish, raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llash - ta'lim sifatini oshirish va boshqaruv samaradorligini barqaror ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akhmedov, S. (2020). Ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimlari va ularning samaradorligi. Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
2. Islomov, B., & Qodirov, M. (2019). Pedagogik menejment va strategik rejalashtirish. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Karimov, T. (2021). Ta'lim muassasalarida monitoring va baholash tizimlarini rivojlantirish. O'zbekiston pedagogika jurnali, 3(15), 45–53.
4. Lee, J., & Smith, P. (2018). Educational management and leadership in the 21st century. London: Routledge.
5. Mamatqulov, A. (2020). Raqamli texnologiyalarni ta'lim boshqaruvida qo'llash samaradorligi. Innovatsion ta'lim, 2(7), 12–19.
6. OECD. (2019). Education policy outlook 2019: Working together to help students achieve their potential. Paris: OECD Publishing.
7. Rahmonov, D. (2018). Ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarish. Ta'lim menejmenti va ilmiy tadqiqotlar, 1(10), 33–41.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.